“TASDIQLAYMAN”
“O‘ztransgaz” AJ huzuridagi
jamoatchilik kengashining raisi
L.Sharipova
2026-yil 7-oktabr

“O‘ztransgaz” AJ Gaz transport tizimi, shuningdek gazni yer ostida saqlash inshootlari faoliyatida amalga oshirilgan ishlar to‘g‘risida jamoatchilik kengashining

4-sonli BAYONI

2026-yil 7-oktabr **Toshkent v.**

KUN TARTIBI:

“O‘ztransgaz” aksiyadorlik jamiyati tizimida Gaz transport tizimi, shuningdek gazni yer ostida saqlash inshootlari faoliyatida amalga oshirilgan ishlar yuzasidan tahlil

Yig‘ilishda raislik qildi: - L.Sharipova – “O‘ztransgaz” AJ huzuridagi jamoatchilik kengashining raisi

Qatnashdilar:

Jamoatchilik kengashi a’zolari: A.Umarov, Sh.Boboyev, S. Sidikjanova, M.Kosimov, M.Magdiyeva va F.Tadjibaeva
Magistral gaz quvurlarini ekspluatatsiya qilish departamenti Gaz taqsimlash stansiyalari va gaz o‘lchov stansiyalarinini ekspulatatsiya qilish bo‘limi boshlig‘i S.Jo‘raev, Kompressor stansiyalarini ekspluatatsiya qilish bo‘limi boshlig‘I R.Muydinov, Texnik siyosat va metodologiya bo'limi boshlig‘I X.Maxmudov hamda bosh mutaxassisi N.Qobilov

Taklif kilinganlar: -

“O‘ztransgaz” AJ jamoatchilik kengashining 2026-yil 3-chorakda amalga oshirgan ishlari tugrisidagi yig‘ilishi Jamoatchilik kengashining raisi L.Sharipova tomonidan ochildi.

L.Sharipova yig‘ilish ishtirokchilarini kun tartibidagi masala bilan tanishtirib, “O‘ztransgaz” AJning mamlakat gaz transport tizimidagi o‘rni, magistral gaz

quvurlarining barqaror va ishonchli ishlashini ta'minlash, kompressor stansiyalarining faoliyati, gazni yer ostida saqlash inshootlaridan samarali foydalanish, shuningdek tizimni modernizatsiya qilish va texnik jihatdan rivojlantirish masalalariga alohida e'tibor qaratilayotganini ta'kidladi.

Shuningdek, gaz transport tizimining uzluksiz va xavfsiz faoliyat yuritishi nafaqat Jamiyatning ishlab chiqarish samaradorligi, balki iste'molchilarni tabiiy gaz bilan barqaror ta'minlashda ham muhim ahamiyat kasb etishi qayd etildi.

Magistral gaz quvurlarini ekspluatatsiya qilishda sanoat va texnika xavfsizligi talablariga qat'iy rioya etish, mavjud infratuzilmani bosqichma-bosqich yangilash hamda zamonaviy texnologiyalarni joriy etish masalalariga alohida e'tibor qaratilayotgani ta'kidlandi.

Shundan so‘ng Magistral gaz quvurlarini ekspluatatsiya qilish departamenti Gaz taqsimlash stansiyalari va gaz o‘lchov stansiyalarinini ekspulatatsiya qilish bo‘limi boshlig‘i S.Jo‘raev so‘zga chiqib:

S.Jo‘raev o‘z nutqida:

"O‘ztransgaz" AJning magistral gaz quvurlari tizimi respublikaning yagona gaz transport tizimining muhim tarkibiy qismi ekanini ta'kidlab, magistral gaz quvurlarining texnik holati, ularni ekspluatatsiya qilish, ta'mirlash va texnik xizmat ko‘rsatish ishlari haqida ma'lumot berdi.

"O‘ztransgaz" AJ tomonidan 2026/2027 yillar kuz-qish davrida magistral gaz quvurlari va inshootlaridan samarali hamda ishonchli foydalanishga tayyorlash chora-tadbirlari to‘g‘risida 4 maydagi 58-son buyrug‘iga asosan chora-tadbirlar ishlab chiqildi va 01-oktabr holatiga quyidagi ishlar amalga oshirildi.

Gaz taqsimlash stansiyalari bo‘yicha:

- 1035 ta gaz taqsimlash stansiyalarida kirish va chiqish quvurlari izolyatsiyasi tekshirildi (zaruriy holatda yangilash);
- 506 ta tozalash filtrlarining drenaj tizimlari tekshirildi (zaruriy holatda yangilash);
- 7894 ta doimiy ochiq va yopiq bo‘lgan berkitish moslamalarining ishlash qobilyati tekshirildi;
- 279 ta berkitish moslamalari ta'mirlandi;
- 1363 ta gaz bosimini rostlovchi moslamalari taftishdan o‘tkazildi va ta'mirlandi;
- 116 ta gaz isitish qurilmalari to‘liq taftishdan o‘tkazildi;
- 1170 ta prujinali saqlovchi klaponlari to‘liq taftishdan o‘tkazildi;
- 2250 ta prujinali saqlovchi klaponlar sozlandi va tamg‘alandi;
- 808 ta odorantlash tizimi to‘liq taftishdan o‘tkazildi;
- 421 ta yozuvlar va gaz harakati yo‘nalishi ko‘rsatkichlarini tiklash orqali blok uskunalari va kommunikatsiyalarning tashqi yuzalari bo‘yoqlandi;

- 1508 ta bosimni o‘zgarishi natijasida himoya avtomatika tizimini ishlash qobilyati tekshirildi.

Gazni o‘lchash stansiyalari bo‘yicha:

- 127 ta gazni o‘lchash stansiyalari kirish va chiqish quvurlari izolyatsiyasi tekshirildi;
- 413 ta gazni o‘lchash stansiyalaridagi berkitish moslamalari taftishdan o‘tkazildi;
- 84 ta gazni o‘lchash stansiyalaridagi yozuvlar va gaz harakati yo‘nalishi ko‘rsatkichlarini tiklash orqali blok uskunalari va kommunikatsiyalarning tashqi yuzalari bo‘yoqlandi.

Shundan so‘ng “O‘ztransgaz” AJ Kompressor stansiyalarini ekspluatatsiya qilish departamenti kompressor stansiyalarini ekspluatatsiya qilish bo‘limi boshlig‘i R. Muydinov so‘zga chiqib o‘z nutqida:

“O‘ztransgaz” AJ tomonidan 2026/2027 yillar kuz-qish davrida magistral gaz quvurlari va inshootlaridan samarali hamda ishonchli foydalanishga tayyorlash chora-tadbirlari to‘g‘risida 4 maydagi 58-son buyrug‘iga asosan chora-tadbirlar ishlab chiqildi va 01-oktabr holatiga quyidagi ishlar amalga oshirildi.

Kompressor stansiyalarining texnologik qismi bo‘yicha

- 80 ta gaz xaydash agregatlarining rejali ta’mir ishlari amalga oshirildi: jumladan m.t.-19, o‘.t.-42, j.t.-19;
- 58 ta gaz haydash agregatlari texnik ko‘rikdan o‘tkazildi (GXA ish soatidan kelib chiqib bajarilmoqda);
- 5 471 ta berkitish moslamalarini texnik ko‘rikdan o‘tkazish va ta’mirlash ishlari amalga oshirildi;
- 299 ta yordamchi uskunalarni (havo sovutkichlar, nasoslar, kompressorlar va boshqalar) rejalashtirilgan ta’mirlash va texnik xizmat ko‘rsatish amalga oshirildi;
- 8 867 m^2 kompressor stansiyalarning texnologik jihozlarini bo‘yash ishlari amalga oshirildi;
- 124 ta yoqilg‘i gaz separator blogi filtr-elementlari almashtirildi;
- 1414 ta filtr-separatorlardagi filtr-patronlarni almashtirish ishlari amalga oshirildi;
- 130 m KS-3 G‘allaorolda 7-sonli berkitish moslamalari tugunidan stansiyaga kiruvchi changtutkich qurilmalarigacha 130 metr diametri 1020 mm nuqsonli quvurlar almashtirildi;
- 201 ta yer osti texnologik quvurlarning qismi (shurfovka) ochilib texnik ko‘rikdan o‘tkazildi;
- 391 ta texnologik kommunikatsiyadagi gidrabalonli kranlarning moy sathini tekshirish va zarur bo‘lsa yangi moy quyish ishlari bajarildi;
- 9 ta texnologik kommunikatsiyalardagi kranlarning chiqish gazlari bilan qizdirish tarmoqlari taftishdan o‘tkazildi.
- 12 ta moyni havo bilan sovutish qurilmalari va GHAning moy sig‘imlarini qizdirish tizimini taftishdan o‘tkazildi.

2026 yilda 1 ta NK-16-18ST rusumli gaz turbinali dvigateli kapital ta'mirdan olib kelinib Toshkent MGQB Ohangaron kompressor stansiyasiga gaz haydash agregatiga o'rnatildi.
2 ta NK-12ST rusumidagi gaz turbinali dvigatellar kapital ta'mirdan olib kelinib G'allaorol MGQBga qarashli Yangiyer KS va Zirabuloq MGQB ga qarashli KS-2 A kompres stansiyalariga o'rnatildi va ishga tushirildi.
Yana 2 ta NK-12ST rusumidagi gaz turbinali dvigatellar kapital ta'mirdan oktyabr oyi oxirigacha olib kelib o'rnatilinadi.
2 ta DU80L1 rusumidagi gaz turbinali dvigatellar kapital ta'mirdan olib kelinib Gazli MGQBga qarashli DKS-5B kompres stansiyasi agregatlariga o'rnatilganligi aytdi.

Shundan so'ng gazni yer ostida saqlash omborini ekspluatatsiya qilish bo'limi boshlig'i F.Maxmudov "Xo'jaobod" gazni yer ostida saqlash inshootini bo'yicha so'zga chiqib o'z nutqida:

2026 yilda gazni yer ostida saqlash inshootlariga jami 5 mlrd kub metr gaz zaxirasini yaratish rejalashtirilgan.
Bugungi kun holatiga 3 600 mln kub metrga yaqin tabiiy gaz jamlandi, jumladan, "Xo'jaobod" GYOSI ob'ektlarini 2026-2027 yillar kuz-qish davrida samarali va ishonchli foydalanishga tayyorlash chora-tadbir rejasi asosida quyidagi ishlar bajarildi:
- 9 dona 1-, 2- va 3-sonli GYP lardagi suyuqlik sig'imlarining zadvijkalari va klinkerlarini sozlash, moylash yoki nosozlarini yangisiga almashtirish ishlari bajarildi;
- 6 dona 1-, 2- va 3-sonli GYP lardagi separatorlarining ichki qismlarini tozalash hamda nosoz qismlarini almashtirish ishlari bajarildi.
- 4 dona 1-, 2- va 3-sonli GYP lardagi suyuqlik haydash nasoslarini va zadvijkalari moylandi, sozlandi va taftishdan o'tkazildi;
- 6 dona 1-, 2- va 3-sonli GYP lardagi asosiy va o'lchov separatorlarining suyuqlik to'kish klapanlarini sozlash ishlari bajarildi;
- 6 dona 1-, 2- va 3-sonli GYP separatorlarining ichki qismlari taftishdan o'tkazildi va tozalandi
- 19 dona quduqlarni kapital va joriy ta'mirlash davrida quduqlarning zadvijkalarini, sharli va probkali kranlarini moylash, sozlash va nosozlarini yangisiga almashtirish ishlari bajarildi;
- 7 dona (reja – 8 dona) issiqlik almashgichlar ichki qismi tozalandi, taftish qilindi. E-600 issiqlik almashgich apparati zavod sharoitida ta'mirlanmoqda.
- 11 dona separatorlarning taftishdan utkazish ishlari bajarildi;
- 3 dona saqlovchi klapanlari taftish qilindi;
- 3 dona klapanlari taftish qilindi;
- 5 dona klapanlari taftish qilindi;
- 8 dona kranlarini taftish qilish ishlari bajarildi;
- 5 dona KJ-2250B rusumli DEG sochish nasoslar taftish qilindi;
- 6 dona isitish pechlari kirish chiqish quvurlari va kranlarini taftish qilish;
- 2 dona Reboylerini taftish qilindi va ta'mirlandi;

- 19 dona quduqlarda joriy va kapital ta'mirlash ishlari bajarildi;
- 70 dona quduqlarda gazodinamik tadqiqot ishlarini o'tkazish chuqurlik manometrlarida Ppl va Tpl ishlari bajarildi.

4 ta band bo'yicha ishlar kuzgi neytral davrda bajarilishi rejalashtirilganligini aytib o'tdi.

Shundan so'ng so'z Texnik siyosat va metodologiya bo'limi bosh mutaxassisi N.Qobilovga so'zga chiqib o'z nutqida:

"O'ztransgaz" AJ tomonidan 2026/2027 yillar kuz-qish davrida magistral gaz quvurlari va inshootlaridan samarali hamda ishonchli foydalanishga tayyorlash chora-tadbirlari to'g'risida 4 maydagi 58-son buyrug'iga asosan chora-tadbirlar ishlab chiqildi va quyidagi ishlar amalga oshirildi.

Magistral gaz quvurlarining liniya qismi bo'yicha:

- **57,69 km** magistral gaz quvurlarining nuqsonli qismini almashtirildi;
- **3598,7 km** magistral gaz quvurlarining ichki sirtini tozalandi;
- **552 ta** havo orqali o'tish joyilarining izolyatsiya holati tekshirildi va ta'mirlandi;
- **378 ta** havo orqali o'tishida tayanch ustunlar holati tekshirildi va ta'mirlandi;
- **875 ta** temir va avtomobil yo'llari orqali o'tish joylari va ushbu qismlarda o'rnatilgan himoya g'iloflari tekshirildi;
- **2010 metr** suv yuvishi ehtimoli bo'lgan magistral gaz quvurlariga yaqin joylar tuproq bilan to'ldirildi (ko'mildi);
- **4297 ta** chiziqli hamda yordamchi berkitish moslamalari taftishdan o'tkazildi;
- **26 ta** magistral gaz quvurlarinining liniya qismidagi berkitish moslamalari almashtirildi;
- **1860 ta** shurf kovlash ishlari bajarildi;
- **122 ta** porshen uzatish va qabul qilish uzellari taftishdan o'tkazildi;
- **214 ta** avariya transport vositalarni va mexanizmlarni jihozlanish tabeliga muvofiqligi tekshirildi hamda shay holatga keltirildi;
- **312,04 km** uzunlikdagi magistral gaz quvurlari gidravlik/pnevmo sinovdan o'tkazildi.

Ushbu chora tadbirlarning bajarilishi magistral gaz quvurlari orqali tabiiy gazni tashishda qiyinchiliklarni oldini olishga hamda 2026-2027 yillar kuz-qish mavsumida o'tkazuvchanlik imkoniyatlarini yaxshilashga xizmat qiladi deb so'zini yakunladi.

Kun tartibidagi masala yuzasidan **Jamoatchilik kengashi a'zolarining taklif va mulohazalari tinglandi.**

Muhokama davomida Jamoatchilik kengashi a'zolari tomonidan gaz transport tizimining ishonchliligi va xavfsizligini ta'minlash, magistral gaz quvurlari va kompressor stansiyalarining texnik holatini muntazam nazorat qilish, gazni yer ostida saqlash inshootlaridan samarali foydalanish, zamonaviy texnologiyalarni keng joriy

etish hamda tizimda mavjud muammolarni o‘z vaqtida aniqlash va bartaraf etish masalalariga alohida e’tibor qaratish bo‘yicha takliflar bildirildi.

Shuningdek, Jamoatchilik kengashi a’zolari tomonidan gaz transport tizimi obyektlarining faoliyati yuzasidan jamoatchilikka ochiq va tushunarli axborot berib borish, tizimdagi texnik yangilanishlar hamda amalga oshirilayotgan ishlar to‘g‘risida muntazam ma’lumotlar taqdim etish maqsadga muvofiqligi ta’kidlandi.

Kun tartibida belgilangan masala atroflicha muhokama qilinganidan so‘ng, Jamoatchilik kengashi raisi **L.Sharipova** mazkur yo‘nalishda amalga oshirilayotgan ishlarni ijobiy baholashni taklif etdi.

Jamoatchilik kengashi a’zolari tomonidan taklif bir ovozdan ma’qullandi. Qarshilar va betaraflar yo‘q.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, “O‘ztransgaz” AJ huzuridagi Jamoatchilik kengashi kun tartibidagi masalani muhokama qilib,

QAROR QILADI:

1. “O‘ztransgaz” AJ gaz transport tizimi, shuningdek gazni yer ostida saqlash inshootlari faoliyati, ularning ishonchli, barqaror va xavfsiz ishlashini ta’minlash borasida amalga oshirilayotgan ishlar **ijobiy deb baholansin**.

2. Magistral gaz quvurlarini ekspluatatsiya qilish, kompressor stansiyalari faoliyati hamda gazni yer ostida saqlash inshootlarining texnik holatini muntazam nazorat qilish, aniqlangan kamchiliklarni o‘z vaqtida bartaraf etish va texnik xavfsizlik talablariga qat’iy rioya etish bo‘yicha ishlar izchil davom ettirilsin.

3. Gaz transport tizimini modernizatsiya qilish, zamonaviy texnologiyalarni joriy etish, energiya samaradorligini oshirish hamda mavjud ishlab chiqarish quvvatlaridan samarali foydalanish masalalariga alohida e’tibor qaratilsin.

4. Gaz transport tizimi va gazni yer ostida saqlash inshootlari faoliyati yuzasidan jamoatchilikka ochiq axborot berib borish hamda amalga oshirilayotgan ishlar to‘g‘risida ma’lumotlarni muntazam yoritish tavsiya etilsin.

5. Mazkur qarorning ijrosi va belgilangan vazifalarning bajarilishi ustidan monitoring olib borish Jamoatchilik kengashi raisi va a’zolari zimmasiga yuklatilsin.

Kotib: **S.Sidikjonova**